

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

G‘ULOMOV ABDULLO NURILLO O‘G‘LI

**MAHMUD LOMISHIYNING KALOM ILMIGA OID MEROSI VA UNING
BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**

24.00.03 – Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot

**Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

UO‘K: 28-23-9(575)
G‘-87

**Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on Islamic
sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по исламоведческим наукам**

G‘ulomov Abdullo Nurillo o‘g‘li

Mahmud Lomishiyning kalom ilmiga oid merosi va uning bugungi kundagi
ahamiyati..... 3

G‘ulomov Abdullo Nurillo o‘g‘li

Mahmoud Lamishi’s scientific heritage on islamic philosophy and its present
significance..... 23

Гуломов Абдулло Нурилло угли

Научное наследие науки калям Махмуда Ламиши и его значение в настоящее
время 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 46

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

G‘ULOMOV ABDULLO NURILLO O‘G‘LI

**MAHMUD LOMISHIYNING KALOM ILMIGA OID MEROSI VA UNING
BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI**

24.00.03 – Fiqh, kalom ilmi. Ilohiyot

**Islomshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PhD/Isl41 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.iiu.uz hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Oqilov Saidmuxtor Saydakbarovich

tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Ziyodov Shovosil Yunusovich,

tarix fanlari doktori (DSc), katta ilmiy xodim

Primov Soatmurod Uralovich,

Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Fanlar akademiyasi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Sharqshunoslik instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «__» avgust soat __ dagi onlayn/oflayn majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№137 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11- uy. Tel.: (99871) 2440056; faks: (99871) 2440065; e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «__» avgustda tarqatildi.
(2023-yil 18-iyuldagi 7-raqamli reyestr bayonnomasi.)

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Z.M. Islomov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Globallashuv jarayonlarida yosh avlodni adashgan oqimlarning turli g'oyaviy xurujlaridan himoya qilish va e'tiqodiy mavzulardagi ixtiloflarning oldini olishda moturidiya aqidaviy maktabiga (المدرسة الماتريدية) oid manbalarni hamda moturidiylik vatani sanalgan Movarounnahr allomalari ilmiy merosini keng jamoatchilikka yetkazish dolzarblik kasb etmoqda. Mahmud Lomishiy XI asr oxiri – XII asr birinchi yarmida Samarqandda faoliyat yuritgan, moturidiya aqidaviy maktabi rivojiga o'ziga xos hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadi. Uning asarlarida yoritilgan hanafiy-moturidiy aqidasi asoslarining mohiyatini ochib berish muhim ahamiyatga ega.

Dunyodagi islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazlarida moturidiya ta'limotining tarixi, rivojlanish bosqichlari, falsafiy qarashlari, bilish nazariyasi, uning musulmonlar hayotida tutgan o'rnini o'rganish bilan bog'liq tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda Mahmud Lomishiy hayoti, asarlari, islom huquqi metodologiyasi hamda kalom ilmiga oid qarashlarini o'zida aks ettirgan izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, tadqiqotlarda Mahmud Lomishiyning “at-Tamhid li qavoid at-tavhid”¹ (التمهيد لقواعد التوحيد) – “Tavhid qoidalari haqida qo'llanma”) nomli asarini o'rganish bilan nafaqat Movarounnahr va Xuroson o'lkalari, balki Saljuqiylar, Usmoniylar davlati madrasalarida ham aqoid fanidan darslik sifatida o'qitilgan hamda moturidiya ta'limoti rivojida muhim o'rin tutgan manba tadqiq qilingan.

Yangilanayotgan O'zbekistonda diniy sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida moturidiya ta'limoti manbalarini o'rganish va bu ta'limotning diniy-ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini ko'rsatish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Buning natijasi o'laroq, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilib, olimlar tomonidan Imom Moturidiyning “Ta'vilot al-Qur'on” tafsiri, Abu Shakur Keshiyning “at-Tamhid fi bayon at-tavhid” asari, “E'tiqod durdonalari” kitobi, hanafiy-moturidiy ulamolarning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan turkum risolalar nashr etildi. Ushbu tadqiqot ham moturidiya ta'limoti namoyandalaridan biri sanalgan Mahmud Lomishiyning “at-Tamhid” nomli asari va uning zamonaviy aqidaviy masalalarni hal etishdagi ahamiyatini ko'rsatib berish bilan yuqoridagi izlanishlarning davomi bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-son “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda 2022-yil 10-fevraldagi PQ-126-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish

¹ Bundan keyin “at-Tamhid” shaklida beriladi.

tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Diniy-aqidaviy masalalarni o‘z ichiga olgan moturidiya ta’limotiga doir manbalarni ilmiy tadqiq qilishga Sharq va G‘arb tadqiqotchilari tomonidan katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Mahmud Lomishiyning ilmiy faoliyati va “at-Tamhid” asari borasidagi manbalar hamda adabiyotlarni tadqiqot yo‘nalishiga ko‘ra quyidagi 4 guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruhga Mahmud Lomishiyning shaxsiyati va uning “at-Tamhid” asari haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan asar hamda tadqiqotlar kiradi. Jumladan, Muhyiddin Ibn Muhammad Abdulqodir Hanafiy, Abulfido Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o Suduniy, Hoji Xalifa, Muhammad Hifzurrahmon, Karl Brokelman, So‘nmas Kutlu, Yusuf Shavqiy Yavuz, Ubaydulla Uvatovning asarlari va ilmiy ishlarini alohida qayd etish mumkin. Ular o‘z ilmiy tadqiqotlarida Mahmud Lomishiyning XII asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgani hamda moturidiya ta’limotiga doir “at-Tamhid” asarini yozgani to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar berib o‘tganlar²;

ikkinchi guruhdan “at-Tamhid” asarining qo‘lyozma nusxalari asosida uning tanqidiy matnini yaratishga doir tadqiqotlar o‘rin olgan. Jumladan, Abdulmajid Turkiy, Ahmad Farid Mizyadiy va Usmon O‘rkach kabi olimlar tomonidan turli yillarda asarning tanqidiy matni nashr etilgan³;

uchinchi guruhga Mahmud Lomishiyning “at-Tamhid” asaridagi aqidaviy hamda “Usul al-fiqh” asaridagi metodologik qarashlar umumiy tahlil qilingan tadqiqotlarni kiritish mumkin. Jumladan, Mahmud Said Uzundag‘ va Shavish Murad o‘z maqola va izlanishlarida allomaning ma’lum bir aqidaviy mavzular bo‘yicha fikrlari va islom huquqi metodologiyasiga doir qarashlarini tadqiq qilganlar⁴;

² Muhyiddin Ibn Muhammad Abdulqodir Hanafiy. Al-Javohir al-mudiyya fi tabaqot al-hanafiya. – Ar-Riyod: Dor al-ulum, 1993. – J IV. – B. 437; Abulfido Zaynuddin Qosim ibn Qutlubug‘o Suduniy. Toj at-tarajim. – Bayrut: Dor al-qalam, 1992. – B. 290; Hoji Xalifa. Kashf az-zunun. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arabiyy, 1999. – J I. – B. 114; Muhammad Hifzurrahmon. Al-budur al-muziya fi tarajim al-hanafiya. – Dakka: Dar as-solih, 2018. – J XVII. – B. 280; Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur: – Weimar-Berlin, 1898. – V. II. – S. 953; Kutlu S. Timur dönemi ve sonrasi kelamî edebiyatin Türkistan sahasi kaynaklari. // Ankara üniversitesi ilahiyat fakültesi. 1/2010. – S. 12; Yavuz Y. Lâmişî. TDV İA. II, – İstanbul: 2016. – S. 146-147; Uvatov U. O‘zbekiston – buyuk allomalar yurti. – T.: Ma’naviyat, 2010. – B. 236-239.

³ Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-Tamhid li qavoid at-tavhid. / Abdulmajid Turkiy tahqiqi ostida. – Bayrut: Dor al-g‘arb al-islamiy, 1995. – 262 b; Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-Tamhid li qavoid at-tavhid. / Ahmad Farid Mizyadiy tahqiqi ostida. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 2007. – 160 b; Mahmud ibn Zayd Lomishiy. At-Tamhid li qavoid at-tavhid. / Usmon Orkach tahqiqi ostida. – Istanbul, Erenler vakfi, 2021. – 248 b.

⁴ Şik I. Semerkandlı Hanefi-Mâturidî Âlim Mahmud b. Zeyd el-Lâmişî ve İlmi Konumu // Çukurova üniversitesi ilahiyat fakültesi dergisi. 1/2010. – S. 105-125; O‘sha muallif. Mahmud b Zayd al-Lamishi and The Problem of Universe’s Creation // 2nd International Scientific Researches Congress on Humanities and Social Sciences. –

to'rtinchi guruhga bevosita Mahmud Lomishiyning “at-Tamhid” asarini manbashunoslik jihatidan dissertatsiya ishiga jalb qilgan turk tadqiqotchisi Ismoil Shikning ilmiy ishini kiritish mumkin. 2009-yilda Ismoil Shik Turkiyadagi Anqara universiteti qoshidagi Ijtimoiy bilimlar institutida doktor Ahmad Oqbulut rahbarligi ostida “Mahmud ibn Zayd Lomishiyning kalom ilmidagi qarashlari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yozgan⁵. Ushbu dissertatsiya Turkiyadagi “Sulaymoniya”, “Boyazid” va “Milliy” kutubxonalarda saqlanayotgan “at-Tamhid” asarining beshta qo‘lyozma nusxasi hamda Abdulmajid Turkiy tomonidan 1995-yilda amalga oshirilgan asarning tanqidiy matni asosida tayyorlangan izohli tarjimadan iborat. Bundan tashqari, dissertatsiyaning alohida bobi hanafiy mazhabining vujudga kelishi, mazkur mazhabning Movarounnahrda kirib kelishi, hanafiy-moturidiy maktabida kalom va usul al-fiqh ilmlarining o‘zaro aloqadorligi hamda Lomishiyning usul al-fiqhga doir qarashlarini yoritib berishga bag‘ishlangan.

Yuqoridagi ilmiy izlanishlardan kelib chiqib aytish mumkinki, Mahmud Lomishiyning kalom ilmiga oid merosi, xususan, “at-Tamhid” asarining bugungi kundagi ahamiyatini maxsus tadqiqot obyekti sifatida o‘rganish dolzarflik kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan A-1-051 – “Islomshunoslik muammolarini birlamchi manbalar va ajdodlarimiz diniy-ma’rifiy merosini tizimli tahlil qilish asosida yosh avlodda sog‘lom e’tiqodni shakllantirish” mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mahmud Lomishiyning kalom ilmiga oid merosi va uning bugungi kundagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XI-XII asrlarda Movarounnahrda kalom ilmining rivojlanishini o‘rganish va mazkur davrda moturidiya ta’limoti asosida yozilgan asarlarni tasniflash;

Mahmud Lomishiyning hayoti va ilmiy faoliyatiga doir ma’lumotlarni tiklash, olim tomonidan yozilgan asarlarni aniqlash;

allomaning “Usul al-fiqh” asarida aqidaviy mavzularni yoritishdagi uslubini tahlil qilish;

Mahmud Lomishiyning tamhid uslubidan foydalanishdagi yondashuvini ochib berish;

“at-Tamhid” asarining tarkibiy tavsifini amalga oshirish;

“at-Tamhid”da aqidaviy masalalar yuzasidan keltirilgan dalillar talqinini ochib berish;

Lomishiyning “imon” tushunchasiga doir qarashlarini yoritib berish;

Istanbul, 2017. – S. 129; Uzundağ M. Semerkandlı Hanefi-Mâturidî Âlim Mahmud b. Zeydel-Lâmişî ve Bazı Hadis Meselelerine Yaklaşımı. // Şırnak Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. 16/2017. – S. 55-75; Shawish M. El-lâmişî'nin “Kitâb fî Usûli'l-Fıkh” Kitabında Yontem. // Siirt Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi. 1/2020. – S. 205-221.

⁵ Şik I. Mahmud b. Zeyd el-Lâmişînin kelâm Anlayışı. / Doktora Tezi, Ankara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, 2009. – 277 s.

asardagi ilohiyot masalalarining zamonaviy aqidaviy ixtiloflarning oldini olishdagi rolini ko'rsatish hamda mavzu yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini Mahmud Lomishiyning kalom ilmiga oid merosi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Mahmud Lomishiy asarlaridagi moturidiya ta'limotiga doir qarashlar, ularning dalillari va bugungi kundagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez, induksiya, deduksiya va qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Lomishiy tavfiq (توفيق) va hidoyat (هداية)ning ilohiyligi e'tiboridan imonning maxluq emasligi to'g'risidagi Buxoro mutakallimlari qarashlaridan farqli o'laroq, insonning amali hisoblangan hamda imonning mohiyatini tashkil etgan iqrar (إقرار) va tasdiq (تصديق) nuqtai nazaridan imonning maxluq ekanligi borasidagi Samarqand olimlari qarashlarini qo'llab-quvvatlagani aniqlangan;

olim oyat va hadislarda xamr, mut'a nikohi, meros taqsimoti, qiblaning o'zgarishi borasida nasx (نسخ – bekor qilish) hukmi kelgani, imon esa, o'zgarmas, yaxlit narsa bo'lib, nasxni qabul qilmasligi sababli amallar imon tarkibiga kirmasligini ta'kidlab, xorijiy va mu'taziliya oqimlariga raddiya bergani dalillangan;

alloma mu'tazilalarning "aslah" (أصلح – Allohning banda uchun eng manfaatli ishni qilishga majburligi) tamoyiliga raddiya bildirib, Alloh taolo ular iddao qilgandek bandalari uchun zimmasidagi vojib ishni qilishining noto'g'riligini Uning "Muhsin" (محسن) – ehson qiluvchi, "Mufzil" (مفضل) – fazl ko'rsatuvchi, "Mun'im" (منعم) – ne'mat beruvchi ism-sifatlarini misolida isbotlagani ochib berilgan;

Lomishiy "at-Tamhid" asarida "sanaviya" (dualist)lardan bo'lgan "monaviya" (مانوية) va "daysoniya" (ديسانية) firqasidan farqli ravishda, "marqiyuniya" (مريقيونية) toifasi olamni yaratuvchi nur va zulmatdan tashqari uchinchi aslning mavjudligi borasidagi da'volarini yoritib bergani isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

musulmon olimlari tomonidan yozilgan tabaqot janridagi kitoblar hamda Mahmud Lomishiyning "Usul al-fiqh" asari qo'lyozmalarining qiyosiy-tanqidiy tahlili natijasida olimning biografiyasi borasidagi ma'lumotlar tartiblangan;

"at-Tamhid" asarining dunyo fondlarida saqlanayotgan mavjud oltita qo'lyozma nusxasi hamda uchta zamonaviy nashrlari asosida ilk marotaba o'zbek tilidagi izohli tarjimai amalga oshirilgan;

"at-Tamhid" olimning moturidiya ta'limoti borasida sodda va yengil uslubda, adashgan oqimlarga raddiya berish uchun yozilgani "Mahmud ibn Zayd Lomishiy" nomli risolada asoslangan;

olimning "Kitab fi usul al-fiqh" nomli asari Fes qo'lyozma nusxasida keltirilgan dalillar boshqa bibliografik asarlardagi ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil

etilib, Mahmud Lomishiyning “al-Ijaz fil-i’tiroz ‘ala al-adilla ash-shar’iyya”, “Mashriq al-anvor fi Mushkil al-osor”, “Muqaddima raf’il-yadayn fis-solat” va “Bug‘ya” nomli asarlar yozgani aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiyada asarning Istanbul shahridagi Sulaymoniya kutubxonasining “Lolali” bo‘limida №3658/4, “Arzinjon” bo‘limida №159/5, “Hoji Salim og‘a” bo‘limi №587/4, shuningdek, Anqaradagi Milliy kutubxona fondida №236, Ko‘nyadagi Qo‘lyozmalar kutubxonasida №4864/5 hamda Istanbuldagi Boyazid kutubxonasida BDK-7930/1 raqami ostida saqlanayotgan nusxalaridan foydalanilgani hamda tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiq etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyaning nazariy xulosalari hamda ilmiy muomalaga kiritilgan qo‘lyozma manbalardan Mahmud Lomishiy hayoti va ilmiy faoliyati, shuningdek, olimning kalom ilmiga oid merosi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish, shu bilan birga, ulardan Moturidiya ta’limotini to‘g‘ri talqin qilish orqali metodologik yondashuvlarni shakllantirish borasidagi nazariy konsepsiyalarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati ularning Mahmud Lomishiyga bag‘ishlangan turli risolalar, kitoblar nashr etish hamda keng jamoatchilikda “at-Tamhid” asarida kelgan dalillar orqali zamonaviy aqidaparast oqimlarga qarshi g‘oyaviy immunitetni shakllantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahmud Lomishiyning kalom ilmiga oid merosi, xususan, “at-Tamhid” asarining bugungi ahamiyati bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Lomishiy tavfiq (توفيق) va hidoyat (هداية)ning ilohiyligi e’tiboridan imonning maxluq emasligi to‘g‘risidagi Buxoro mutakallimlari qarashlaridan farqli o‘laroq, insonning amali hisoblangan iqror (إقرار) va tasdiq (تصديق) nuqtai nazaridan imonning maxluq ekanligi borasidagi Samarqand olimlari qarashlarini qo‘llab-quvvatlagani to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida nashr etilgan “Mahmud ibn Zayd Lomishiy va uning “at-Tamhid” asari” nomli monografiya mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2023-yil 9-iyundagi 02-02-1/4624-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu kitobda taqdim qilingan ma’lumotlar fuqarolar, xususan, yoshlarni zamonaviy oqimlarning yot g‘oyalari ta’siridan muhofaza qilishga xizmat qilgan;

alloma mu’tazilalarning “aslah” (أصلح – Allohning banda uchun eng manfaatli ishni qilishga majburligi) tamoyiliga raddiya bildirib, Alloh taolo ular iddao qilgandek, bandalari uchun zimmasidagi vojib ishni qilishining noto‘g‘riligini Uning “Muhsin” (محسن) – ehson qiluvchi, “Mufzil” (مفضل) – fazl ko‘rsatuvchi, “Mun’im” (منعم) – ne’mat beruvchi ism-sifatlarini misolida isbotlagani to‘g‘risidagi ilmiy xulosalar O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi tomonidan nashr etilgan “Yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash asoslari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston musulmonlari idorasining 2023-yil 21-iyundagi 1829-son ma’lumotnomasi). Natijada, diniy soha xodimlarining aqidaviy masalalardagi

ixtiloflarga raddiya berish borasidagi nazariy bilimlarining mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

olim oyat va hadislarda xamr, mut'a nikohi, meros taqsimoti, qiblaning o'zgarishi borasida nasx (نسخ – bekor qilish) hukmi kelgani, imon esa, o'zgarmas, yaxlit narsa bo'lib, nasxni qabul qilmasligi sababli amallar imon tarkibiga kirmasligini ta'kidlab xorijiy va mu'taziliya oqimlariga raddiya bergani to'g'risidagi ilmiy xulosalar buyurtma asosida chop etilgan "Movarounnahrda Moturidiya kalom ilmi maktabi" nomli kitob mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2023-yil 16-iyundagi 02/291-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ma'lumotlar oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar orasida jaholat va ilmsizlik g'oyalariga berilishning oldini olish hamda milliy-diniy qadriyatlarga hurmat bilan yondashishga xizmat qilgan;

allomaning "at-Tamhid li qavoid at-tavhid" asari tavsifi, asarning bugungi kundagi ahamiyati sifatida uning biror manbaga sharh emas, aksincha, mustaqil matn ekani, kalom ilmiga oid manba sifatida Movarounnahr hamda moturidiya ta'limoti keng tarqalgan hududlarda yuksak e'tirof etilgani, tili sodda, bayoni oson, hajmi muxtasar bo'lgani bois, XII asrdan to bugungi kungacha madrasalarda kalom fani bo'yicha muhim qo'llanma vazifasini bajarib kelayotgani to'g'risidagi ilmiy xulosalardan buyurtma asosida "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Taqdimot" hamda "Buyuk yurt allomalari" turkum ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 19-maydagi 02-31-788-son ma'lumotnomasi). Natijada, fuqarolarning ajdodlar ilmiy merosiga doir yangi ilmiy ma'lumotlar bilan tanishishi, tarixiy bilimlarining oshishi va ularda milliy g'urur tuyg'usining mustahkamlanishiga asos bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 1 ta risola, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, o'rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ishning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchiligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib

berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprotatsiyasi natijalari, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mahmud Lomishiyning kalom ilmiga oid merosini o'rganishning metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida XI-XII asrlarda Movarounnahrda yozilgan kalom ilmiga oid asarlar tahlili hamda manbalarda Mahmud Lomishiy hayoti va ilmiy faoliyatiga doir ma'lumotlarning aks etishi masalasi yoritilgan.

Birinchi bobning *“XI-XII asrlarda Movarounnahrda yozilgan kalom ilmiga oid asarlar tahlili”* nomli bandida tadqiq etilayotgan davrda mintaqada hukmronlik qilgan Qoraxoniylarning musulmon ulamolari bilan samimiy aloqa o'rnatib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlaganlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Diniy hayotda islom dini davlat mafkurasi darajasiga ko'tarilib, hokimiyatning mustahkamligi va g'oyaviy birligi uchun Qoraxoniy hukmdorlari ulamolar bilan do'stona munosabatda bo'lishga intilganlar. Qoraxoniy hukmdorlarning ulamolarni islom ummati birligini saqlashga xizmat qiluvchi asarlar yozishga targ'ib qilishi natijasida keyingi davrda yozilgan kitoblar uchun asos vazifasini o'tagan asarlar ta'lif etildi. Garchi mazkur davrda Imom Moturidiy asos solgan ta'limot moturidiya nomi bilan atalmagan bo'lsa-da, mazkur maktabning shakllanishi va taraqqiy etishida XI-XII asrlar Movarounnahrda faoliyat yuritgan mutakallim allomalar ilmiy merosi ushbu jarayonda ulkan o'rin tutgan.

Nasaf vohasidan yetishib chiqqan Abul Yusr Muhammad Pazdaviy (421-493/1030-1100), Faxrulislom Pazdaviy (vaf. 482/1089) va Abul Muin Nasafiy (437-508/1046-1114), Najmiddin Abu Hafs Nasafiy (vaf. 537/1143) kabi mashhur mutakallim ulamolarning g'arbiy qoraxoniylar davlatining poytaxti Samarqandga ko'chib o'tishi hanafiy mazhabi va moturidiya ta'limotining rivojlanishini sezilarli darajada ijobiy tarafdagi o'zgartirdi. Ular o'sha davrdagi turli adashgan firqa va oqimlarga qarshi kurash bilan bir qatorda shofe'iy-ash'ariylarning hanafiylar ta'limotiga qarshi qaratilgan faoliyati bilan raqobat qilishda jonbozlik ko'rsatganlar⁶.

XII asrning birinchi yarmida Movarounnahrda qoraxoniylar va saljuqiylar o'rtasidagi keskin kurashlar va siyosiy jarayonlar ta'sirida ikki fiqhiy mazhab – hanafiy va shofe'iy ulamolari o'rtasida o'zaro ilmiy munozaralar bo'lib turgan. Hanafiy ulamolar qatorida Mahmud Lomishiy Imom Moturidiy fikrlarini qo'llab-quvvatlagan. Shofe'iy ulamolari esa bu hududda hali keng tarqalmagan Abulhasan Ash'ariyning ta'limotini yoyishga harakat qilganlar. Shofe'iy ulamolarning Movarounnahrda faoliyat olib borishlari saljuqiylarning bu o'lkada tutgan mavqelari bilan bevosita bog'liq bo'lgan.

To'g'ulbek, Alp Arslon va uning vaziri Nizomulmulk, Sulton Sanjar kabi saljuqiy hukmdorlar davrida aqidaviy masalalarga davlat darajasida e'tibor qaratilgan. Najmiddin Umar Nasafiyning mashhur *“Aqoid an-Nasafiy”* asari moturidiya ta'limoti doirasida Abu Muin Nasafiyning *“Tabsira al-adilla”* asaridan

⁶ Oqilov S. Abul Muin an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta'limoti. – Toshkent: Muharrir, 2008. – B. 65-66.

keyingi o'ringda e'tirof etilgan. 1141-yilda Saljuqiylar hukmdori Sulton Sanjar bilan birga Samarqandga kelgan Siyston viloyati hokimi Amir Abulfazl shahar ulamolari, qozi va shayxlari bilan bo'lgan majlisda ulardan ahli sunna val jamoa e'tiqodi bo'yicha bir risola yozib berishni iltimos qilgan. Risola tayyor bo'lgach, barcha ulamolar o'z roziliklarini imzolari bilan tasdiqlashlarini so'ragan. Amir Abulfazl ulamolar ittifoqi asosida yoziladigan risolani o'z yurtiga olib borishini hamda undagi aqidaviy qarashlarga zid gapirgan kishini jazoga tortishini aytgan. Majlisda ishtirok etgan ulamolar bunga rozilik bildirganlar hamda hamma bir ovozdanda mazkur risolani yozishga Imom Abu Hafs Nasafiyni munosib, deb bilganlar. Ulamolar risola tayyor bo'lgach, uni tasdiqlashga roziliklarini bildirganlar⁷. Ushbu holat XII asrda aqidaviy masalalar, xususan, moturidiya ta'limotiga oid risolalar yozishga davlat darajasida e'tibor qaratilganiga dalolat qiladi.

XI-XII asrlarda Movarounnahrda mutakallim ulamolar tomonidan moturidiya ta'limotining e'tiqodiy qarashlarini aks ettiruvchi "Usul ad-din", "Tabsira al-adilla", "at-Tamhid li qavoid at-tavhid", "Bahr al-kalom", "Lubob al-kalom", "Kitob al-misdoq", "al-Qasida al-lomiya fi at-tavhid", "al-Munozarot", "Kitob al-bidoya min al-Kifoya fi al-hidoya fi usul ad-din", "al-Kifoya fi al-hidoya", "Aqidat as-Sobuniy", "al-Mug'niy fi usul ad-din", "al-Muntaqo min ravza al-mutakallimin", "Usul at-tavhid" kabi 30 ga yaqin asarlar yozilgan.

Mazkur davrda yaratilgan asarlarni quyidagi olti guruhga tasniflash mumkin:

a) aqidaviy matnlar (Najmiddin Umar Nasafiyning "Aqoidi Nasafiya", Nuriddin Sobuniyning "al-Bidoya fi usul ad-din", Saffor Buxoriyning "al-Mo'tamad fi al-mo'taqad" asarlari);

b) manzumalar (Imomzoda Buxoriyning "Uqud al-aqid", Sirojiddin O'shiyning "Bad'ul-amoliy" asarlari);

d) "Tamhid" nomi ostida yozilgan asarlar (Abul Muin Nasafiy, Abu Shakur Keshiy va Mahmud Lomishiyning "at-Tamhid" asarlari);

e) "mutavval" – kalom ilmiga oid masalalar mufassal bayon qilingan katta hajmli asarlar (Abul Muin Nasafiyning "Tabsira al-adilla", Nuruddin Sobuniyning "al-Kifaya fi al-hidaya", Saffor Buxoriyning "Talxis al-adilla" asarlari);

f) muayyan aqidaviy asarga yozilgan sharhlar (Alouddin Asmandiyning "at-Tasdid sharh at-Tamhid" asari);

g) munozara janrida yozilgan asarlar. Nuruddin Sobuniy Buxoroda ash'ariya maktabi vakili Faxruddin Roziy bilan ham uchrashib, takvin (yaratish sifati), Allohning boqiyiligi, toqatdan tashqari ishga taklif qilish va Allohning kalomi ta'rifi kabi mavzularda munozaralar qilgan. Keyinchalik mazkur munozara haqida "al-Munozarot" (Munozaralar) nomli asar ham yozgan. Bu kitob 1956-yilda Hindistonning Haydarobod shahrida nashr etilgan⁸.

Birinchi bobning "*Manbalarda Mahmud Lomishiy hayoti va ilmiy faoliyatiga doir ma'lumotlarning aks etishi*" nomli ikkinchi bandida Mahmud Lomishiy

⁷ Umar Jo'yo Muhammad. Nusxai forsiyi "Aqoidi Nasafi" yo bayoni e'tiqodi ahli sunnat va jamoat dar muqoyasa va muqobala bo nusxai arabiyi "al-Aqid an-Nasafi". – Tehron: Bayyinot, 2021. – B. 6.

⁸ Doktor Balqosim ibn Hasan al-G'oliy. Abu Mansur al-Moturidiy: hayotuhu va arouhu al-aqdiya. – Tunis: Dor at-turkiy, 1989. – B. 21.

moturidiya ta'limoti va hanafiy fiqhining mashhur vakillaridan biri sifatida Qurashiyning (vaf.775/1334) "al-Javohir al-mudiya fi tabaqot al-hanafiya", Ibn Qutlubug'oning (vaf. 879/1474) "Toj at-tarojim", Hoji Xalifaning (vaf. 1067/1657) "Kashf az-zunun", Muhammad Hifzurrahmonning "al-Budur al-muziya fi tarojim al-hanafiya" kabi olimlarning tarjimai hollariga oid tabaqot kitoblarida keltirilgan ma'lumotlar tahlili amalga oshirilgan.

Lomishiyning tug'ilish va vafot sanasi haqida turli chalkash ma'lumotlarning taqdim etilishi tabaqot kitoblarida "Lomishiy" nisbasi bilan atalgan Husayn ibn Ali ibn Abulqosim Lomishiy va Abu Abdulloh Bolasog'uniy Lomishiy kabi boshqa olimlarning ham borligi bilan izohlanadi. Xususan, Husayn ibn Ali ibn Abulqosim Lomishiy va Mahmud Lomishiy ayni bir davrda va bir hududda yashab, faoliyat olib borganligi sabab ular haqidagi ma'lumotlar o'zaro qorishib ketgan.

Olim hayoti va ilmiy faoliyati haqida mavjud asarlarining qo'lyozma nusxalaridagi ma'lumotlarga asoslanib xulosa qilish mumkin. Chunonchi, olimning Abu Hasan Ali ibn Ahmad Abdula'lam tomonidan ko'chirilgan "Kitob fi usul al-fiqh" asarining London qo'lyozma nusxasida mazkur asar 534/1140-yilda yozilgani qayd etilgan⁹ hamda olimning bu davrda hayot ekanligiga ishora qilingan. Mazkur ma'lumotdan olimning yashagan davrini hijriy V asr oxiri hamda VI asr birinchi yarmi (milodiy XI – XII asr) bilan chegaralash mumkin.

Mahmud Lomishiy bevosita ustozlik qilgan shogirdi – "Imomzoda Buxoriy" nomi bilan tanilgan Muhammad ibn Abu Bakr Buxoriy Hanafiy bo'lib¹⁰, ushbu olimning 573/1177-yilda vafot etgani e'tiboridan yuqoridagi fikr to'g'riligi o'z tasdig'ini topadi. Olimning "Bayon kashf al-alfoz" risolasini o'rgangan tadqiqotchi Hasan Mustafo Chalabiy Lomishiy haqida yuqoridagilardan farqli ma'lumotlarni keltirgan. Uning fikricha, Lomishiyning nomi ikki asarda alohida tilga olingan. Bular "Tahqiq sharhi Axsikatiy" hamda "Tavzih sharhi Muqaddimati Abillays" asarlaridir. "Tahqiq" asari muallifi Abdulaziz ibn Ahmad Buxoriy (vaf. 730/1329) bo'lib, uning bu asari Hisomiddin Muhammad ibn Muhammad Umar Axsikatiy (vaf. 644/1246)ning fiqh ilmiga oid muxtasar asarining tadqiqi hisoblanadi. "Tavzih" esa Shayx Muslihiddin Mustafo ibn Zakariyo Oytug'mish Kirmoniy (vaf. 809/1406)ga tegishli bo'lib, "Sharh Muqaddimati Abillays" asarining sharhi hisoblanadi. Chalabiyning ta'kidlashicha, Abullays Nasr ibn Muhammad ibn Ibrohim Samarqandiy (vaf. 373/983) ushbu asarda Lomishiyning nomini tilga olgan. Agar bu ma'lumot to'g'ri bo'lsa, Lomishiy hijriy IV asr oxiri hamda V asr boshlarida yashagan, degan xulosa kelib chiqadi. Unga ko'ra, Lomishiy Abullays Samarqandiy bilan zamondosh bo'lgan, ikkisi bir-biridan ta'sirlangan, hatto ular o'rtasida ustoz-shogird munosabatlari bo'lgan, degan fikr kelib chiqadi¹¹. Chalabiy bergan ma'lumotlar boshqa manbalardagi ma'lumotlar bilan mos kelmaydi. Sababi Chalabiy bergan ma'lumotlar asarning bir nusxasi asosida taqdim etilgan bo'lib, yanglish bo'lish ehtimoli juda yuqori. Chunki asar qo'lyozmasi ustidagi ma'lumotlar muallif yoki shorih tomonidan kiritilgani ma'lum emas.

⁹ Mahmud Lomishiy. Usul al-fiqh. – London: Britaniya muzeyi. – Qo'lyozma. – № Or.13-Or.18.

¹⁰ Muhammad Usmon Do'g'on. Uqud al-aqoid fi funun al-favoid. – Ammon: Dor al-Fath, 2018. – B. 23.

¹¹ Şik I. Mahmud b. Zeyd el-Lâmişinin kelâm Anlayışı. – Anqara: Asil yayın dağıtım, 2009. – S. 43.

O'rganishlarimiz shuni ko'rsatdiki, mazkur ma'lumotlar shorih tomonidan asarga kiritilgan qo'shimchalar hisoblanadi. Shu bilan birga, Chalabiy "Kashf al-alfoz" asarini tadqiq qilish jarayonida Lomishiyning boshqa asarlaridan xabardor bo'lmagani ham ma'lum bo'ladi. Bugungi kunda mavjud Lomishiy asarlari tahqiqi, mazkur asarlarda zikr etilgan shaxslar nomlari sinchiklab o'rganilsa, uning hijriy IV asrda yashagani haqiqatdan yiroq ekani ma'lum bo'ladi. Lomishiy o'zining "at-Tamhid" asarida Abu Muin Nasafiyning "Tabsira al-adilla" asaridan iqtibos keltirgan. Agar Chalabiy bergan ma'lumotga tayanadigan bo'lsak, Lomishiy o'zidan ancha keyin yashagan Nasafiydan iqtibos keltirmasligi kerak edi. Biroq Lomishiy o'zining kalom ilmiga oid qarashlarida Nasafiyning fikrlariga tez-tez murojaat qilgan¹². Demak, bu borada Chalabiyning fikrlari bilan qo'lyozmalar asosida olingan ma'lumotlar o'zaro mos kelmaydi.

Tadqiqot natijasida Lomishiyning "al-Ijaz fil-i'tiroz 'ala al-adilla ash-shar'iyya", "Mashriq al-anvor fi Mushkil al-osor", "Muqaddima raf'il-yadayn fis-solat" va "Bug'ya" kabi asarlar yozgani aniqlandi. Hozirgi kunga qadar olimning "at-Tamhid li qavoid at-tavhid", "Kitob fi usul al-fiqh" hamda "Bayon kashf al-alfoz" asarlari yetib kelgan.

Dissertatsiyaning "**Mahmud Lomishiy asarlarida aqidaviy masalalarning yoritilishi**" deb nomlangan ikkinchi bobida "Kitob fi usul al-fiqh" asarida kalom ilmiga oid masalalar talqini, Mahmud Lomishiyning tamhid uslubidan foydalanishdagi yondashuvi va "at-Tamhid" asarining tarkibiy tavsifi yoritilgan.

Ikkinchi bobning "*Kitob fi usul al-fiqh*" asarida kalom ilmiga oid masalalar talqini" nomli bandida olim "Kitob fi usul al-fiqh" asarining beshta o'rnida kalom ilmiga oid tushunchalarni keltirib o'tgani izohlangan. Ular "Ilm", "Aql", "Kalom va uning Qur'onga dalolati", "Mutlaq amrning hukmi", "Da'vat yetib bormagan odam imonga xitob qilinganmi?" kabi mavzular hisoblanadi. Alloh taoloning ilmi qadimligi kalom ilmiga xos masala sifatida yoritib berilgan. "Aql" mavzusida uning Yaratuvchini tanishda hujjatligi ochib berilgan. Kalom Alloh taoloning azaliy sifati ekani, mu'tazilalarning bu boradagi qarashlari xato ekanligi dalillar bilan yoritib berilgan. Lomishiy shariat manbalarida kelgan buyruq maylidagi fe'llarning dalolati borasida Iroq va Samarqand olimlari o'rtasida ixtilof borligini keltirib, Samarqand olimlari fikrini quvvatlagan. "Usul al-fiqh" asarida bir insonga islom da'vati yetib borishidan oldin aqli bilan imon keltirishi zarurligi yoki yo'qligi borasidagi bahs ham yoritilgan. Muallif mazkur o'rinda ham Samarqand mutakallimlari, xususan, Imom Moturidiyning islom da'vati yetib bormagan kishi aqli bilan Yaratuvchini tanishi va imon keltirishi lozimligi borasidagi fikrini keltiradi va shu fikrni to'la qo'llab-quvvatlaydi.

Lomishiyning fiqh ilmiga oid atamalar izohiga bag'ishlangan "Bayon kashf al-alfoz" asarida kalom ilmiga oid "olam", "ilhom", "javhar", "jism", "araz", "qadim", "hodis" tushunchalariga ta'rif berilgan. Jumladan, muallif "javhar" so'zini "ma'lum bir makonni egallovchi, o'zi egallab turgan o'rinda boshqa

¹² Qarang: Mahmud Lomishiy. At-Tamhid li qavoid at-tavhid. / Ahmad Farid Mizyadiy tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2007. – B. 154.

narsaning mavjud bo'lishini man qiluvchi narsa", deya ta'riflaydi¹³.

Mazkur bobning "*Mahmud Lomishiyning tamhid uslubidan foydalanishdagi yondashuvi*" nomli bandida muallifning mavzularni yoritishda "tamhid" nomi ostida yozilgan aqidaviy asarlarda bo'lgani kabi yengil va sodda jummalarni qo'llagani, dastavval muayyan mavzu borasida ahli sunna val jamoa qarashini bayon qilgani, so'ng adashgan toifalarning ushbu mavzu bo'yicha da'volari va dalillarini keltirib, mavzu oxirida ahli sunnaning dalillari asosida adashgan oqimlarga raddiyalar bergani ochib berilgan. Odatda kalom ilmiga oid asarlar qiyin va murakkab uslubda yoziladi. Ayrim hollarda esa mantiqiy qoidalarga katta o'rin ajratiladi. Bu uslub talabalar tomonidan aqidaviy mavzularni oson shaklda o'zlashtirilishiga to'sqinlik qiladi.

Tadqiqot jarayonida moturidiya ta'limotini o'zida aks ettiruvchi "at-Tamhid" nomi ostida yozilgan 3 ta asar aniqlandi. Mazkur asarlar Abul Muin Nasafiy, Abu Shakur Keshiy hamda Mahmud Lomishiyga tegishli bo'lib, ular xorijiya, mu'taziliya, qadariya, jabariya kabi oqimlarga raddiya berish maqsadida yozilgan. Ularni tasnif etishda naqliy va aqliy-mantiqiy dalillarga tayanilgan. Mazkur asarlarda ahli sunna val jamoa aqidasi batafsil tarzda, aniq, ravshan ifoda qilingan va qarshi taraf fikrlariga e'tiroz, bahs-munozaralarga keng o'rin berilgan. Lomishiyning "at-Tamhid" asari Nasafiy va Keshiyning ayni nomdagi asariga nisbatan hajmining kichikligi, tilining soddaligi hamda bayoni osonligi bilan ajralib turadi. Nasafiy, Keshiy hamda Lomishiyning "at-Tamhid" nomli asarlari Allohning sifatleri, Allohning makon va tarafdin xoli ekani, Alloh taoloni jannatda ko'rish, payg'ambarlik, qazo va qadar, inson fe'llarining yaratilishi, qabr azobi va Munkar-Nakir savol-javobi, shafolat, imon, karomat, gunohi kabira sodir etgan insonning hukmi kabi mavzular misolida qiyoslanib, ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, olimning "Kitob fi usul al-fiqh" asarining "Kalom va uning Qur'onga dalolati", "Mutlaq amrning hukmi", "Da'vat yetib bormagan odam imonga xitob qilinganmi?" nomli fasllari ham "tamhid" uslubi xususiyatlaridan foydalangan holda yozilgani yoritib berilgan.

"*At-Tamhid*" asarining tarkibiy tavsifi" nomli bandeda olimning kalom ilmiga oid qarashlari aks etgan "at-Tamhid" asarining tarkibiy tuzilishi, mavzularning mantiqiy izchillik tartibida joylashtirilishi va fasllarda aks etishi, qisqa va lo'nda shaklda yoritilishi bilan o'z davrida yozilgan kalom ilmiga oid kitoblardan afzallik jihatlari ochib berilgan.

"At-Tamhid"da aqidaviy masalalarning aniqlik hamda mantiqiy izchillik bilan tasniflanishi muallifning kalom ilmi borasidagi ilmiy salohiyatini va iqtidorini ko'rsatadi. Mahmud Lomishiy "at-Tamhid" asarida aqidaviy masalalarni 30 faslda izohlab bergan. Kitob narsalar haqiqatining isboti va bilish vositalari mavzusidan boshlangani, asar so'nggida "imon" mavzusining alohida bobda atroflicha o'rganilgani olimning Imom Moturidiy uslubiga tayanganini ko'rsatadi. Lomishiy o'sha davr talabidan kelib chiqib, ilohiyot masalalaridagi mavjud ixtiloflarga raddiya berish maqsadida "Ism va sifatleri isbotlash", "Yaratish yaratilmish

¹³ Mahmud Lomishiy. Kashf al-alfoz. – Iskandariya: al-Maktaba al-baladiya kutubxonasi. – Qo'lyozma. – № 1345. – B. 1^a-1^b.

(takvin mukavvan)dan boshqaligi”, “Bandalar fe’llarining yaratilgani”, “Gunohkor mo‘minlarni ogohlantirish”, “Imon” kabi mavzularga keng o‘rin ajratgan¹⁴. Allomaning aqliy dalil keltirishda muxoliflarga qarshi mantiq ilmining qarshi taraf fikrlarining noto‘g‘riligini isbotlashga qaratilgan – “ilzomiy” (“mulzam qiluvchi”) va o‘z fikrining to‘g‘riligini dalillashga qaratilgan – “tahqiqiy” (“ro‘yobga chiqaruvchi”) qonuniyatlaridan samarali istifoda etgani “at-Tamhid” asarining ilmiy qiymati va ahamiyatini yanada oshirgan.

Olim “Narsalar haqiqatining mavjudligi” mavzusida sofistika tarafdorlarining fikrlari noto‘g‘ri ekanini ilzomiy dalil asosida isbotlab bergan. Mahmud Lomishiyning bu borada qo‘llagan uslubini olimning “at-Tamhid” asaridan keltirilgan quyidagi iqtibosda yaqqol ko‘rish mumkin: “Sufistoiylarning bir guruhi (inodiya toifasi): “Narsalarning haqiqati yo‘q”, – deb hisoblaydi.

Ularga aytamizki: “Bu mazhabingizda haqiqat bormi? Narsalarning haqiqatini inkor etishingiz haqiqatmi?”

Agar ular bu savolga “yo‘q” deb javob bersa, o‘z fikrini inkor qilgan, da’vosi noto‘g‘ri ekaniga iqrор bo‘lgan bo‘ladi. Agar “ha” deb javob bersa, o‘z fikrining haqiqat ekaniga va narsalar haqiqatini inkor qilishning haqiqat ekaniga iqrор bo‘lgan bo‘ladi, ular bu ishlari bilan ba’zi narsalarning haqiqatini isbotlagan bo‘ladi. Ma’lum bo‘ldiki, haqiqatni inkor qiluvchi aslida uni isbotlovchidir, aslida u (haqiqat)ni inkor qilish boshqa bir haqiqatni isbotlashdir. Demak, narsalarning haqiqati bo‘lishi zarur.

Sufistoiylardan yana bir toifa (loadriya): “Narsalarning haqiqati bormi, yo‘qmi bilmaymiz”, - deyishadi. Ular “mutashakkikun (shak qiluvchilar)” deyiladi.

Ularga: “Bilmaymiz” degan so‘zgingizda haqiqat bormi?” deymiz.

Agar “yo‘q” deyishsa, ular bilan munozaraga o‘rin qolmaydi. Agar “ha” deyishsa, ba’zi narsalarning haqiqatini isbotlagan bo‘ladilar.

Ular (sufistoiylar)dan yana bir toifa (indiya): “Narsalarning haqiqati e’tiqod qiluvchining e’tiqodiga tobedir, har bir narsaning haqiqati unga ishonuvchi qanday e’tiqod qilishiga bog‘liqdir”, deydi.

Ularga: “Sizning shu e’tiqodingiz haqiqatmi yoki yo‘qmi?”, deymiz.

Agar “ha” deb javob berishsa mazhabini inkor qilgan bo‘ladilar. “Yo‘q” deb javob berishsa muhol (imkonsiz ish)ni da’vo qilgan bo‘ladilar. Chunki narsaning haqiqatini haqiqati yo‘q ish bilan isbotlash imkonsizdir.

Yana ularga: “Biz narsalarning haqiqati e’tiqod qiluvchining e’tiqodiga bog‘liq emas, deb e’tiqod qilamiz, biz e’tiqod qilayotgan narsa sobitmi yoki yo‘qmi?” deymiz.

Ular qay yo‘sinda javob berishmasin, o‘z fikrlarini inkor qilgan bo‘ladilar”¹⁵.

Mahmud Lomishiy ularning bu gaplari qaysarlik sababli aytilganini ta’kidlaydi, chunki ularning halok qiladigan zaxardan, keskir qilichlardan ehtiyot bo‘lishi, zaxarli ilonlardan, chayonlardan o‘zlarini chetga olishi, og‘riqli azoblar, aziyat beradigan kasalliklar paytida ingrashlari narsalarning haqiqatini bilishlariga, narsalarning haqiqati esa ularning e’tiqodiga tobe emasligiga dalil bo‘lishini ochib

¹⁴ Lomishiy. At-Tamhid. / Usmon Orkach tahqiqi. – B. 185-209.

¹⁵ O‘sha manba. – B. 49-53.

beradi. Lekin ular takabburlik va o'jarliklari sababli o'zlarining yanglish fikrlariga yopishib olganliklarini yoritib beradi.

Olim yana bir o'rinda ilhom ilm hosil qilish vositalaridan biridir, deb hisoblovchi toifaning fikri noto'g'ri ekanini quyidagi bitta savol yordamida ochib bergan: "Ba'zilar: "Ilhom ilm vositalaridan biridir", deydi. Bu noto'g'ri, chunki ularga "Menga ilhom qilindiki, ilhom ilm olish yo'llaridan emas ekan". U aslida ham ilm olish yo'limi yoki unday emasmi?" deyilsa, qanday javob berishidan qat'iy nazar o'z fikrlarini inkor qilgan bo'ladilar"¹⁶. Botil tariqatlar singari ayrim adashgan toifalar ilhomning mohiyatini izohlashda haddan oshishgan. Olim mazkur o'rinda ham, islom shariatiga ko'ra, ilhom ilm hosil qilish vositalaridan emasligini isbotlashda mantiq ilmining "ilzomiy dalil" turidan foydalanib isbotlab bergan. Mahmud Lomishiy "at-Tamhid" asarining 2 ta faslida ilzomiy, 23 ta faslida esa tahqiqiy dalil turidan foydalangan.

Asarda islom aqidasi bilan birga nasroniylilik, yahudiylik, majusiylilik, brahmanlik kabi dinlar va ularning e'tiqodiy qarashlariga ham to'xtalib o'tilgan. Bu holat talabalar uchun islom dini aqidalari bilan tanishish bilan birga boshqa dinlarning asosiy e'tiqodiy qarashlaridan xabardor bo'lish imkonini bergan.

Dissertatsiyaning "**at-Tamhid**" asarining aqidaviy masalalar yechimidagi **ahamiyati**" deb nomlangan uchinchi bobida "at-Tamhid"dagi aqidaviy masalalarni asoslashda aqliy va naqliy dalillarning o'rni, manbada "Imon" mavzusi bayonining o'ziga xos jihatlari va asarning zamonaviy aqidaviy ixtiloflarning oldini olishdagi roli kabi masalalar yoritilgan.

